

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA  
JAMOAT SALOMATLIGI XIZMATI FAOLIYATINI TASHKIL QILISH CHORA-  
TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-iyuldagi “Koronavirus pandemiyasini yumshatish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va salomatligini saqlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6035-son **Farmoniga** muvofiq:

1. Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining (keyingi o‘rinlarda — Sanitariya-epidemiologiya xizmati) asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilansin:

sanitariya-epidemiologiya sohasida potensial xavf-xatarlarni aniqlash, baholash, respublika hududidagi yuqumli kasalliklar tabiiy o‘choqlari ustidan epidemiologik monitoring va epidemiyaga qarshi profilaktik tadbirlar majmuini amalga oshirish;

sanitariya-gigiyena, radiatsion gigiyena, fizik omillar, bakteriologiya, virusologiya, parazitologiya va o‘ta xavfli kasalliklar tashxisi bo‘yicha laboratoriyalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

inson salomatligiga ta’sir etuvchi xavfli omillarni boshqarish, tizimli monitoringini olib borish va tahlil qilishning yangi shakl va usullarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish;

jamoat salomatligi va kasalliklar profilaktikasi hamda aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligiga doir davlat siyosatini samarali amalga oshirish, mazkur yo‘nalishda davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtirish;

jamoat salomatligi va kasalliklar profilaktikasi hamda aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligiga oid fundamental va ilmiy-amaliy tadqiqotlar amalga oshirish, bu boradagi ilmiy izlanishlarni muvofiqlashtirish, soha mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

oziq-ovqat xavfsizligi sohasida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish va ular bilan hamkorlik qilish, oziq-ovqat xomashyosi va iste’mol mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash va sotish faoliyati ustidan belgilangan tartibda nazorat qilish;

sohaga oid davlat va boshqa xizmatlarni ko‘rsatish, mahsulot, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga qo‘yiladigan majburiy talablarga taalluqliligi bo‘yicha maxsus ekspertizalar tayinlash va o‘tkazish;

sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining tibbiy madaniyatini oshirish va tibbiy profilaktika bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda ularning amalga oshirilishini ta’minlash;

davlat va idoraviy tibbiyot statistikasini yuritish, to‘plash, tahlil qilishiga uslubiy rahbarlik qilish, aholi salomatligiga salbiy ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash maqsadida zarur tekshirishlar va so‘rovlar o‘tkazish;

xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya etilishi ustidan davlat sanitariya nazoratini amalga oshirish va qonunbuzilish holatlari aniqlanganda qonunchilikda belgilangan choralarni qo‘llash.

2. Belgilansinki, Sanitariya-epidemiologiya xizmati va uning tizimidagi tashkilotlar o‘ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish doirasida quyidagi huquqlarga ega:

karantinli va inson uchun xavfli bo‘lgan boshqa yuqumli kasalliklar paydo bo‘lishi hamda tarqalishi sharoitida epidemiyalarga qarshi kurashish qoidalarini buzishga oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan tegishli tibbiy asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda karantinda saqlash yoki davolanish tarzidagi tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasini qo‘llash;

yuqumli va parazitlar kasalliklar tarqalishining oldini olishga qaratilgan, xo‘jalik faoliyati va boshqa faoliyatning alohida tartibini, aholi, transport vositalari, yuklar va (yoki) tovarlar harakatlanishining cheklanishini nazarda tutadigan tibbiy-sanitariya chora-tadbirlarini amalga oshirish;

inson hayoti va salomatligi uchun jiddiy xavf tug'diruvchi yuqumli kasalliklar tarqalishi yoxud texnogen yoki tabiiy xususiyatga ega halokat sodir bo'lishi real xavfi vujudga kelganda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar obyektlarda tekshirishlar o'tkazish;

sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari buzilganligi aniqlangan holatlarda litsenziyalar va ruxsat beruvchi hujjatlarni to'xtatib turish, tugatish va bekor qilish masalalarini hal qilish yuzasidan tegishli organlar va tashkilotlarga taqdimnomalar yuborish;

yuridik va jismoniy shaxslarga nazorat obyektidagi huquqbuzarliklarni bartaraf qilish uchun mos ravishda, ammo oltmish kundan ortiq bo'lmagan muddatni belgilagan holda, aniqlangan huquqbuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish;

elektron ro'yxatga olish yagona tizimida ro'yxatdan o'tkazish orqali vakolatli organni xabardor etish tartibida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini laboratoriya-instrumental usulini qo'llagan holda o'n kundan ko'p bo'lmagan muddatgacha tekshiruvdan o'tkazish hamda tekshiruvdan o'tkazishga beg'araz ekspert yoki mutaxassis sifatida laboratoriya xodimlarini jalb qilish;

favqulodda vaziyatlarda, epidemiyalar hamda aholining hayoti va sog'lig'i uchun boshqa haqiqiy xavf yuzaga kelganda, ommaviy zaharlanish va guruhli kasalliklar qayd etilganda (davolash muassasasi xabari, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari va boshqa hollarda) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlar o'tkazish;

budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan Sanitariya-epidemiologiya xizmati faoliyatiga shartnoma asosida qo'shimcha xodimlar jalb qilish.

### 3. Quyidagilar:

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining tashkiliy tuzilmasi **1-ilovaga** muvofiq;

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining markaziy apparati tuzilmasi **2-ilovaga** muvofiq;

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati to'g'risidagi nizom **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

### 4. Belgilab qo'yilsinki:

Sanitariya-epidemiologiya xizmatining markaziy apparati, hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari xodimlarining umumiy cheklangan soni 17 554 nafar etib belgilanadi;

Sanitariya-epidemiologiya xizmati aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va jamoat salomatligi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish uchun javobgar bo'lgan vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi;

### *Oldingi tahrirga qarang.*

Sanitariya-epidemiologiya xizmati Sog'liqni saqlash vazirligining tarkibiga kiradi, Sanitariya-epidemiologiya xizmatining boshlig'i bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining o'rinbosari hamda Bosh davlat sanitariya vrachi hisoblanadi;

*(4-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-oktabrdagi PQ-4847-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.10.2020-y., 07/20/4847/1347-son)*

tuman (shahar) sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limlari o'z faoliyatida tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmalariga, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmalari esa — Sanitariya-epidemiologiya xizmatiga bevosita bo'ysunadilar va ularning oldida hisobdordir;

Sanitariya-epidemiologiya xizmati va uning hududiy bo'linmalari o'z vakolatlarini barcha davlat organlari va tashkilotlari, ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshiradilar;

Sanitariya-epidemiologiya xizmati boshlig'i O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan, uning o'rinbosarlari esa sog'liqni saqlash vazirining taqdimnomasiga ko'ra Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi;

Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitlar kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyot markazi va uning L.M. Isayev nomidagi filiali Epidemiologiya, mikrobiologiya va yuqumli kasalliklar ilmiy tadqiqot instituti hamda L.M. Isayev nomidagi tibbiy parazitologiya ilmiy-tadqiqot instituti negizida tashkil etiladi;

Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitlar kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyot markazi barcha davlat yuqumli kasalliklar shifoxonalari va dispansyerlari hamda davlat tibbiyot tashkilotlarining yuqumli kasalliklar bo'linmalari faoliyatiga tashkiliy-metodik rahbarlikni amalga oshiradi;

Virusologiya ilmiy-tadqiqot instituti yuridik shaxs maqomi saqlangan holda — Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitlar kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyot markazining tashkiliy tuzilmasiga kiradi;

Virusologiya ilmiy-tadqiqot instituti direktori bir vaqtning o'zida Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitlar kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktorining birinchi o'rinbosari hisoblanadi;

L.M. Isayev nomidagi tibbiy parazitologiya ilmiy-tadqiqot institutining klinikasi yuridik shaxs maqomi saqlangan holda — Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitlar kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyot markazining L.M. Isayev nomidagi filialining tashkiliy tuzilmasiga kiradi;

Milliy referens laboratoriya Laboratoriya kompleksi negizida tashkil qilinadi. Bunda, uni moliyalashtirishning amaldagi tartibi saqlab qolinadi va u respublika hududidagi barcha sanitariya-gigiyena, radiologiya, toksikologiya, bakteriologiya, parazitologiya hamda virusologiya laboratoriyalari natijalarini muvofiqlashtiradi va ularga amaliy-uslubiy yordam ko'rsatadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

5. Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitlar kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzurida yuridik maqomiga ega bo'lmagan Biologik xavfsizlik markazi hamda Gen texnologiyalari markazi tashkil qilinsin.

*(5-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrda PQ-4891-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.11.2020-y., 07/20/4891/1514-son)*

6. Sanitariya-epidemiologiya xizmati boshlig'iga:

zarur hollarda Sanitariya-epidemiologiya xizmati markaziy apparati va uning hududiy bo'linmalari tuzilmasiga boshqaruv xodimlarining cheklangan umumiy soni doirasida o'zgartirishlar kiritish;

Sanitariya-epidemiologiya xizmati faoliyatini samarali tashkil etish, unga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish uchun xorijiy institutlar, kompaniyalar, mutaxassislar va ekspertlarni, shu jumladan shartnoma asosida jalb qilish huquqi berilsin.

7. Sanitariya-epidemiologiya xizmati:

ikki hafta muddatda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar hamda tuman (shahar) sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmalari va bo'limlarining namunaviy tuzilmalarini tasdiqlasin;

bir oy muddatda Sanitariya-epidemiologiya xizmati markaziy apparati va tarkibiy tuzilmalarni Sanitariya-epidemiologiya xizmatiga yuklangan vazifalarni professional darajada bajarishga qodir bo'lgan, zarur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega yuqori malakali kadrlar bilan to'ldirsin;

Milliy referens laboratoriya bazasida mikroorganizmlar banki (biologik va genetik kolleksiya) hamda maxsus immunoglobulin va zardoblar banki, vivariy va genetik laboratoriya singari bo'limlar tashkil etilishini ta'minlasin.

8. Sanitariya-epidemiologiya xizmati Sog'liqni saqlash vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda xavfni tahlil qilish mexanizmini joriy qilish uchun nazorat ostidagi obyektlarning yagona elektron bazasini yaratsin va 2021-yil 1-yanvardan boshlab, uning to'liq ishga tushirilishi hamda "Elektron hukumat" tizimiga integratsiya qilinishini ta'minlasin.

Belgilansinki:

yagona elektron bazani ishlab chiqish bilan bog'liq xarajatlar Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasi, uni keyinchalik texnik qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq xarajatlar esa — Sanitariya-epidemiologiya xizmatining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi;

Sanitariya-epidemiologiya xizmati yagona elektron bazani shakllantirish, samarali faoliyatini ta'minlash va keyinchalik rivojlantirish uchun mas'ul hisoblanadi.

Sanitariya-epidemiologiya xizmati nazorat ostidagi obyektlarida sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mosligini o'rganish natijalarini o'zining veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa ommaviy axborot vositalarida muntazam ravishda joylashtirib borsin hamda ushbu yo'nalishda jamoatchilik fikrini tizimli ravishda tahlil qilsin.

9. Vazirlar Mahkamasi (B.A. Musayev) Sanitariya-epidemiologiya xizmati tuzilishi munosabati bilan barcha zarur tashkiliy masalalarni (qayta tashkil etish, joylashtirish, ta'minot, moliy-iqtisodiy masalalar va boshqalar) tezkorlik bilan xal etilishini ta'minlasin.

10. Sanitariya-epidemiologiya xizmati Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor shoh ko'chasi, 46-uy manzili bo'yicha operativ boshqaruv huquqi asosida joylashtirilsin.

11. Sog'liqni saqlash vazirligi uch oy muddatda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda qonun hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

12. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A. Abduvaxitov va O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari B.A. Musayev zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2020-yil 27-iyul,  
PQ-4790-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-iyuldagi PQ-4790-son qaroriga  
1-ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi  
xizmatining**

**TASHKILY TUZILMASI**

*Oldingi tahrirga qarang.*




\* Har bir tuman (shahar)da bittadan birlik.

(1-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdaqi PQ-4891-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.11.2020-y., 07/20/4891/1514-son)

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020-йил 27-йулдаги PQ-4790-сон қарорига  
2-ILOVA

## Ўзбекистон Республикаси Санитариya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati markaziy apparatining

### TUZILMASI



Давлат бюджети ҳисобидан мoliyalashtiriladigan бoшқарув xodimlarining cheklangan soni — 107 нафар.

\* Та'миноти Санитариya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining Maxsus jamg'armasi mablag'lari ҳисобидан amalga oshiriladi.

## **O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati to‘g‘risidagi**

### **NIZOM**

#### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati (keyingi o‘rinlarda — Sanitariya-epidemiologiya xizmati) maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligini, faoliyatini tashkil etish va hisobot berish tartibini, shuningdek, uning rahbarlarining funksional vazifalari va mas’uliyatini belgilaydi.

2. Sanitariya-epidemiologiya xizmati aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va jamoat salomatligi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish uchun javobgar bo‘lgan vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

3. Sanitariya-epidemiologiya xizmati o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi** va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek, ushbu nizomga va boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

4. Sanitariya-epidemiologiya xizmati va uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmalari, tuman (shahar) sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limlari, shuningdek, uning tarkibiga kiradigan tegishli idoraviy mansub tashkilotlar yuridik shaxs hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va blankalarga, mustaqil balansga, Moliya vazirligida shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga, bank hisob raqamlariga, shu jumladan tijorat banklarida ochilgan xorijiy valyutadagi hisob raqamlariga ega bo‘ladi.

5. Sanitariya-epidemiologiya xizmatining o‘z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, mulkchilik shaklidan qat’iy nazar boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari, shu jumladan fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

6. Sanitariya-epidemiologiya xizmati o‘z faoliyatini davlat organlari va tashkilotlari, nodavlat tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi, shuningdek, aholining sanitariya-epidemiologiya sohasidagi xalqaro va xorijiy tashkilotlarda belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi nomidan vakillik qiladi.

7. Sanitariya-epidemiologiya xizmatining rasmiy nomi:

a) davlat tilida:

to‘liq nomi — O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati;

qisqartirilgan nomi — Sanepidxizmat;

b) rus tilida:

to‘liq nomi — Slujba sanitarno-epidemiologicheskogo blagopoluchiya i obshchestvennogo zdorovya Respubliki Uzbekistan;

qisqartirilgan nomi — Sanepidslujba;

v) ingliz tilida:

to‘liq nomi — Sanitary-epidemiological Welfare and Public Health Service of the Republic of Uzbekistan;

qisqartirilgan nomi — Sanepidservice;

8. Sanitariya-epidemiologiya xizmati joylashgan manzil (pochta manzili): Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 46-uy, 100097.

#### **2-bob. Sanitariya-epidemiologiya xizmatining vazifalari va funksiyalari**

9. Quyidagilar Sanitariya-epidemiologiya xizmatining vazifalari hisoblanadi:

jamoat salomatligi va kasalliklar profilaktikasi hamda aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi sohasida yagona davlat siyosatini olib borish, davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

aholining sanitariya-epidemiologiya osoyishtaligi sohasida davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalarining faoliyatini samarali muvofiqlashtirish va ular bilan hamkorlik qilishni ta'minlash;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga (SanQvaN) rioya qilinishi bo'yicha belgilangan tartibda tekshirishlar o'tkazish va sanitariya-epidemiologiya sohasida qonun buzilishlar bo'yicha ma'muriy javobgarlik choralarini belgilangan tartibda qo'llash;

oziq-ovqat xavfsizligi sohasida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish va ular bilan hamkorlik qilish, oziq-ovqat xomashyosi va iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash va sotish faoliyati bilan shug'ullanuvchi obyektlar faoliyati, shuningdek, zarur xalqaro amaliyotlarni qo'llash tajribasiga asoslangan standartlar talablariga rioya qilish ustidan nazorat qilish metodologiyasini ishlab chiqish va joriy etishda ishtirok etish;

sohaga oid davlat va boshqa xizmatlarni ko'rsatish, mahsulot, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga qo'yiladigan majburiy talablarga taalluqliligi bo'yicha maxsus ekspertizalar tayinlash va o'tkazish;

yuqumli bo'lmagan, yuqumli, parazitlar kasalliklar yuzaga kelishi va tarqalishining oldini olishga qaratilgan epidemiyaga qarshi va sanitariya-gigiyenik tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

sanitariya-gigiyena, radiatsion gigiyena, fizik omillar, bakteriologiya, virusologiya, parazitologiya va o'ta xavfli kasalliklar tashxisi bo'yicha laboratoriyalar faoliyatini yo'lga qo'yish;

inson salomatligiga ta'sir etuvchi xavfli omillarni boshqarish, tizimli monitoringini olib borish va tahlil qilishning yangi shakl va usullarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish;

yuqumli va parazitlar kasalliklar yuzaga kelishi va tarqalishining oldini olishga qaratilgan profilaktik dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizatsiya tadbirlari o'tkazilishini tashkil qilish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

sanitariya-epidemiologiya va jamoat salomatligini ta'minlash sohasida potensial xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va boshqarish jarayonida xavf-xatarlarni tahlil qilish va ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi siyosatni amalga oshirishga ko'maklashish;

O'zbekiston Respublikasi hududida o'latning tabiiy o'choqlari epizootologik monitoringini olib borishni, o'lat va o'ta xavfli infeksiyalar bo'yicha epidemiologik nazorat hamda profilaktik va epidemiyaga qarshi kompleks tadbirlar amalga oshirilishini tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

OIV-infeksiyasining tarqalishiga qarshi kurashish, OIV va hamroh kasalliklarning oldini olish, tashxis qo'yish va davolash bo'yicha yagona tizimning amal qilishini ta'minlash, OIV yuqtirgan shaxslarga tibbiy yordam va ularning ijtimoiy himoyasini tashkil qilish;

jamoat salomatligi va kasalliklar profilaktikasi, sanitariya, gigiyena, epidemiologiya, parazitologiya, mikrobiologiya, virusologiyaning dolzarb masalalari bo'yicha istiqbolli yo'nalishlarni belgilash hamda fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar olib borilishini muvofiqlashtirish;

sog'lom turmush tarzini shakllantirish, barcha ijtimoiy guruhlarni qamrab olgan holda fuqarolarni sanitariya-gigiyenik o'qitish va tarbiyalashni tashkil etishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali aholining sanitariya madaniyati darajasini oshirish;

turli soha xodimlarini sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari bo'yicha to'lov-kontrakt asosida malakasini oshirish;

davlat va idoraviy tibbiyot statistikasini yuritish, to'plash, tahlil qilinishiga uslubiy rahbarlik qilish, aholi salomatligiga salbiy ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash maqsadida zarur tekshirishlar va so'rovlar o'tkazish;

tarmoqning joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini hisobga olgan holda kadrlarni o'qitish, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg'or usullarini tizimli asosda joriy etish.

10. Sanitariya-epidemiologiya xizmati o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) jamoat salomatligi va kasalliklar profilaktikasi hamda aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi sohasida yagona davlat siyosatini olib borish, davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish sohasida:

sanitariya-epidemiologiya sohasida tartibga solishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

sanitariya-epidemiologiya masalalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlaydi va ularni belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

inson salomatligi uchun xavf-xatarlar omillarini boshqarish, monitoring olib borish va tahlil qilishning yangi shakllari va usullarini ishlab chiqish va joriy etish faoliyatini amalga oshiradi;

Sanitariya-epidemiologiya xizmatining tarkibiy va hududiy boshqarma va bo'limlari tomonidan qabul qilingan qarorlarga, shuningdek, ularning mansabdor shaxslarining harakatlariga (harakatsizliklariga) nisbatan shikoyatlarni ko'rib chiqadi;

b) aholining sanitariya-epidemiologiya sohasida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining faoliyatini samarali muvofiqlashtirish va ular bilan hamkorlik qilishni ta'minlash sohasida:

manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birga respublika hududida sanitariya-epidemiologiya osoyishtalikni ta'minlash, shu jumladan karantin, o'ta xavfli va boshqa infeksiyalarni, aholi uchun o'ta xavfli bo'lgan tovar va yuklar O'zbekiston Respublikasi chegarasidagi o'tkazish punktlaridan olib kirilishi, olib o'tilishi va tarqatilishining oldini olish borasidagi kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishini tashkil etadi;

veterinariya xizmati bilan birga kasallik keltirib chiqaruvchi manbalarni yo'q qilishga, antroponoz va zooantroponoz infeksiyali va parazitlar kasalliklar tarqalishining oldini olishga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradi;

v) yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga (SanQvaN) rioya qilinishi bo'yicha belgilangan tartibda tekshirishlar o'tkazish va sanitariya-epidemiologiya sohasida qonun buzilishlar bo'yicha ma'muriy javobgarlik choralarini belgilangan tartibda qo'llash sohasida:

belgilangan tartibda davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan, sanitariya-epidemiologiya sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi ustidan belgilangan tartibda davlat sanitariya-epidemiologiya nazoratini (keyingi o'rinlarda — nazorat) laboratoriya va instrumental tadqiqot usullarini qo'llagan holda amalga oshiradi;

oziq-ovqat xomashyosi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash va realizatsiya qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi, shu jumladan umumiy ovqatlanish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlarida tekshiruvlar o'tkazadi;

iste'molchilarni vodoprovod suvi bilan ta'minlaydigan, oqova suvlarni chiqarib tashlaydigan xo'jalik yurituvchi subyektlarda tekshiruvlar o'tkazadi;

qonun hujjatlariga ko'ra xodimlari tibbiy ko'rikdan o'tishi lozim bo'lgan savdo va aholiga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadigan, shu jumladan sartaroshxona va kosmetologiya xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlarida tekshiruvlar o'tkazadi;

aholiga diagnostika, davolash-profilaktika xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlarida tekshiruvlar o'tkazadi;

aholiga tibbiy xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlarida tekshiruvlar o'tkazadi;



nazoratdagi obyektlar ishchi-xodimlarini majburiy, dastlabki va davriy tibbiy ko'riklarni o'tkazish tartibi va davriyligini hamda tibbiy tashkilotlar tomonidan tibbiy ko'rikdan o'tkazilishining to'liqligini nazorat qiladi;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan umumiy ovqatlanish obyektlarida ratsional va xavfsiz ovqatlanishini tashkil etilishi ustidan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarning bajarilishini nazorat qiladi;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ionlashtiruvchi va ionlashtirmaydigan nurlanish, shovqin, tebranish va inson salomatligi hamda atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan boshqa fizikaviy omillar bilan ishlashda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya etilishini nazorat qiladi;

nazorat obyektlarida o'tkir va surunkali kasb kasalliklarini kelib chiqishi holatlari ustidan nazorat qiladi;

yuqumli va parazitar kasalliklar manbai bo'lgan, shuningdek, tibbiy ko'riklardan o'z vaqtida o'tmagan shaxslarni vaqtincha ishdan chetlashtirish to'g'risida ish beruvchilarga taqdimnoma kiritadi;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan sanitariya-epidemiologiya sohasidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni Sanitariya-epidemiologiya xizmatining rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida yoritadi;

sanitariya-epidemiologiya sohasida xalqaro tashkilotlar va qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro hamkorlik va muvofiqlashtirishni ta'minlaydi;

xalqaro tashkilotlarning normativ-huquqiy hujjatlarini takomillashtiradi va uyg'unlashtiradi;

g) oziq-ovqat xavfsizligi sohasida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish va ular bilan hamkorlik qilish, oziq-ovqat xomashyosi va iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash va sotish faoliyati bilan shug'ullanuvchi obyektlar faoliyati, shuningdek, zarur xalqaro amaliyotlarni qo'llash tajribasiga asoslangan standartlar talablariga rioya qilish ustidan nazorat qilish metodologiyasini ishlab chiqish va joriy etishda ishtirok etish sohasida:

oziq-ovqat xavfsizligi sohasida davlat siyosatni olib boradi, davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining faoliyatini samarali muvofiqlashtiradi va ular bilan hamkorlik qilishni ta'minlaydi;

oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligiga qo'yiladigan talablarni, kontaminantlarni ruxsat etilgan maksimal miqdorini, jumladan pestitsidlar, biologik va kimyoviy omillar, ozuqa qo'shimchalari va veterinariya dori vositalarining qoldiq miqdorlarini belgilaydi;

oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash va sotish jarayonida sanitariya-epidemiologik holatini o'rganadi, oziq-ovqat korxonalarini tekshirish va mahsulotlar importini tartibga solish bo'yicha xavflarni tasniflash mezonlarini belgilaydi va ular asosida tekshiradi;

oziq-ovqat mahsulotlaridan zaharlanish to'g'risida xabar berish tartibini belgilaydi va oldini olishga qaratilgan epidemiyaga qarshi va sanitariya-gigiyenik tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

bolalarbop oziq-ovqat mahsulotlari, biologik faol va oziq-ovqat qo'shimchalarni, yangi oziq-ovqat mahsulotlari, funksional hamda ixtisoslashtirilgan oziq-ovqat mahsulotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazadi va ularning davlat reyestrini yuritadi;

oziq-ovqat xavfsizligini tartibga solish va ularni amalga oshirish masalalari bo'yicha tavsiyalar va ilmiy asoslarni ishlab chiqaruvchi ilmiy ekspert komitetlarni tashkil qiladi va ularning faoliyatini ta'minlaydi;

Kodeks Alimentarius va oziq-ovqat xavfsizligi masalalarini tartibga soluvchi boshqa xalqaro tashkilotlarda belgilangan tartibda qatnashadi;

d) yuqumli bo'lmagan, yuqumli, parazitar kasalliklar yuzaga kelishi va tarqalishining oldini olishga qaratilgan epidemiyaga qarshi va sanitariya-gigiyenik tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish sohasida:

hududlarni karantin va o'ta xavfli, yuqumli va parazitar kasalliklarning olib kirilishi, olib o'tilishi va tarqalishidan sanitariya jihatidan himoya qilish bo'yicha sanitariya-gigiyenik va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va nazorat qiladi;

aholiga profilaktik emlashlar o'tkazish sifati va samaradorligini, o'z vaqtida qamrab olish jarayonida xavf-xatarni tahlil qiladi va ilmiy asoslangan yondashuvlarni inobatga olgan holda yuqumli kasalliklarning immunologik profilaktikasi sohasida chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

yuqumli va parazitar kasalliklar o'choqlarida surishtiruv ishlarini tashkil etadi, sanitariya-gigiyenaga oid va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar amalga oshirilishi ustidan nazorat qiladi;

sanitariya-epidemiologik holatni baholash natijalari bo'yicha aholining sanitariya-epidemiologiya sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni muntazam ravishda buzayotgan yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan ma'muriy hamda taqdimnomalar kiritish bo'yicha ta'sir choralarni qo'llaydi;

aholi yashaydigan hududlarni rivojlantirish, yer uchastkalari ajratish bo'yicha loyiha materiallarini, xo'jalik va sanoat maqsadidagi obyektlarni qurilish va rekonstruksiya qilish loyihalarini ko'rib chiqishda va xulosa berishda ishtirok etadi;

tadqiqotlarni aprotatsiya qilish hamda dezinfeksiyalash va sterilizatsiyalashning yangi zamonaviy usullarini joriy qilish uchun sinov bazasini tashkil etadi, yangi texnologik jarayonlar, ishlab chiqarish uskunalari, asboblari va qurilmalarni sanitariya-gigiyena jihatidan ekspertizadan o'tkazadi;

inson salomatligi va atmosfera havosiga zararli fizik omillar orqali ta'sir ko'rsatuvchi obyektlarning ro'yxatini va hisobini olib boradi va nazorat qiladi;

sanitariya-epidemiologiya sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni tashkillashtiradi;

xavfli yuklarni tashishga bo'lgan talablarga rioya qilgan holda biomateriallar namunalarini respublika ichida va uning tashqarisida tashish chora-tadbirlarini tashkil etadi;

e) yuqumli va parazitar kasalliklar yuzaga kelishi va tarqalishining oldini olishga qaratilgan profilaktik dezinfeksiya, dezinfeksiya, deratizatsiya tadbirlari o'tkazilishini tashkil qilish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish sohasida:

yuqumli va parazitar kasalliklar yuzaga kelishining oldini olishga va ularni kamaytirishga, ular yuqish yo'llari va omillariga ta'sir ko'rsatishga va texnogen tushadigan favqulodda vaziyatlar bilan bog'liq bo'lgan epidemiologik asoratlar oqibatlarini tugatishga qaratilgan profilaktik va o'choqli dezinfeksiya, dezinfeksiya, deratizatsiya, epidemiyaga qarshi tadbirlar o'tkazilishini tashkil etadi;

j) sanitariya-epidemiologiya va jamoat salomatligini ta'minlash sohasida potensial xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va boshqarish jarayonida xavf-xatarlarni tahlil qilish va ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi siyosatni amalga oshirishga ko'maklashish sohasida:

aholining xavfsiz ovqatlanish konsepsiyasi, xalqaro tashkilotlarning tavsiyalariga muvofiq ishlab chiqilgan milliy standartlarning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

aholining turli guruhlari ovqatlanishi maqomini baholaydi, ovqatlanish sifati bilan bog'liq bo'lgan aholi salomatligi ko'rsatkichlarini o'rganadi;

noto'g'ri ovqatlanish bilan bog'liq kasalliklarning oldini olish va ularning tarqalishi darajasini pasaytirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqadi, aholi sog'lom turmush tarzining asoslari sifatida keng tushuntirish ishlari olib borilishini va targ'ibotini, shu jumladan ommaviy axborot vositalaridan faol foydalangan holda tashkil etadi;

ta'lim va tibbiyot tashkilotlarida ovqatlanishni tashkil etish tizimlarini tartibga solish, uyushgan bolalar jamoalarining ovqatlanish ratsionini yaxshilash mexanizmlarini takomillashtiradi;

O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqariladigan va xorijdan yetkazib berilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari va oziq-ovqat xomashyosining sifatini nazorat qilishning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etadi;

z) O'zbekiston Respublikasi hududida o'latning tabiiy o'choqlari epizootologik monitoringini olib borishni, o'lat infeksiyasi bo'yicha epidemiologik nazorat hamda profilaktik va epidemiyaga qarshi kompleks tadbirlar amalga oshirilishini tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish sohasida:

hududning sanitariya himoyasi, o'lat infeksiyasi bo'yicha epidemik vaziyat og'irlashuviga yo'l qo'ymaslik yuzasidan sanitariya-gigiyenik va epidemiyaga qarshi tadbirlar kompleksini ishlab chiqadi;

Sanitariya-epidemiologiya xizmati organlari va tashkilotlarining O'zbekiston Respublikasi aholisini karantin va o'ta xavfli kasalliklar epidemiyalaridan muhofaza qilish masalalarida ishtirok etuvchi boshqa vazirliklar va idoralar bilan hamkorligining shakllari va tartibini belgilaydi.

i) OIV-infeksiyasining tarqalishiga qarshi kurashish, OIV va hamroh kasalliklarning oldini olish, tashxis qo'yish va davolash bo'yicha yagona tizimning amal qilishini ta'minlash, OIV yuqtirgan shaxslarga tibbiy yordam va ularning ijtimoiy himoyasini tashkil qilish sohasida:

OIV infeksiyasi profilaktikasini amalga oshirish, OIV infeksiyasiga tashxis qo'yish va OIVni yuqtirib olganlarni maxsus davolash, shuningdek, tashxis qo'yish, davolash va ilmiy maqsadlarda foydalaniladigan tibbiy preparatlarning, biologik suyuqliklarning xavfsiz bo'lishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

OIV infeksiyasi tarqalishi ustidan epidemiologik nazoratni amalga oshirish;

OIV infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish chora-tadbirlari to'g'risida aholini muntazam ravishda xabardor qilib borish;

OIV mavjudligi yoxud mavjud emasligini aniqlash maqsadida aholini xavfsiz va maxfiy tibbiy tekshiruvdan o'tkazish uchun sharoitlar yaratish;

OIVni yuqtirib olganlarning umrini uzaytirish va turmushi sifatini oshirishga, ularning o'limini kamaytirishga doir tadbirlarni amalga oshirish;

OIV infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish;

k) jamoat salomatligi va kasalliklar profilaktikasi, sanitariya, gigiyena, epidemiologiya, parazitologiya, mikrobiologiya, virusologiyaning dolzarb masalalari bo'yicha istiqbolli yo'nalishlarni belgilash hamda fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar olib borilishini muvofiqlashtirish sohasida:

sanitariya-epidemiologiya sohasida istiqbolli yo'nalishlarni belgilaydi va dolzarb masalalar bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishda ishtirok etadi;

yuqumli, parazitar va ommaviy yuqumli bo'lmagan, zaharlanish va kasbiy kasalliklarning laboratoriya diagnostikasi, davolash va ularga qarshi kurashishning zamonaviy usullarini ishlab chiqadi va amaliyotga joriy qiladi;

sanitariya-epidemiologiya osoyishtaligini ta'minlashga qaratilgan fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlar tanlovlariga taqdim qilingan ilmiy loyihalarni ko'rib chiqishda ishtirok etadi;

gigiyena va epidemiologiya masalalari bo'yicha ilmiy, o'quv tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va jamg'armalar, shu jumladan xorijiy ishtirokchilar bilan hamkorlikni amalga oshiradi, xalqaro ilmiy forumlar va anjumanlarni tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etadi;

l) xavf-xatarlarni barvaqt aniqlashni ta'minlash, baholash va bartaraf etish maqsadida kelib chiqishi oziq-ovqat bilan bog'liq kasalliklar ustidan milliy monitoring olib borish va nazorat qilish tizimini joriy etish sohasida:

oziq-ovqat mahsulotlari bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarni oldini olish maqsadida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqish, tayyorlash, saqlash, tashish va realizatsiyasini o'rnatilgan tartibda nazorat qiladi;

ommaviy ovqatdan zaharlanish va oziq-ovqat mahsulotlari orqali yuqadigan yuqumli kasalliklarni ro'yxatga olish elektron ma'lumotlar bazasini yaratadi va yuritadi, ularni erta aniqlash va xavflarni bartaraf etish choralarni ishlab chiqadi;

m) sog'lom turmush tarzini shakllantirish, barcha ijtimoiy guruhlarni qamrab olgan holda fuqarolarni sanitariya-gigiyenik o'qitish va tarbiyalashni tashkil etishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali aholining sanitariya madaniyati darajasini oshirish sohasida:

fuqarolarni gigiyenaga oid o'qitish va tarbiyalash borasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni ta'minlaydi;

faoliyati oziq-ovqat xomashyosi, oziq-ovqat mahsulotlari, ichimlik suv va kimyoviy moddalarni ishlab chiqarish, saqlash, tashish va sotish, aholiga maishiy va kommunal xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan xodimlarni, shuningdek, tibbiyot, ta'lim tashkilotlari xodimlarini ishga qo'yishdan oldin, tayyorlash va qayta tayyorlashda gigiyena bo'yicha ta'lim berilishini to'lov-kontrakt asosida tashkil etadi;

sanitariya-epidemiologiya sohasida normativ-texnik hujjatlarni ishlab chiqish, obyektlarni loyihalashtirish, qurish va rekonstruksiya qilishda, korxonalarni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashda, xavfli kimyoviy, radioaktiv moddalar, biologik vositalar va materiallar bilan bog'liq ishlarni tashkil etadi va tegishli gigiyenik xulosa beradi;

sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va aholining sanitariya bo'yicha savodxonligini oshirish bo'yicha ommaviy axborot vositalari uchun materiallar va maxsus dasturlar ishlab chiqadi;

n) davlat va idoraviy tibbiyot statistikasini yuritish, to'plash, tahlil qilinishiga uslubiy rahbarlik qilish, aholi salomatligiga salbiy ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash maqsadida zarur tekshirishlar va so'rovlar o'tkazish sohasida;

sog'liqni saqlash tizimi hamda boshqa davlat organlari va tashkilotlarining tarkibiga kiruvchi tibbiyot va yordamchi muassasalardagi tibbiy statistika ma'lumotlarini to'plash, umumlashtirish va tahlil qilish;

aholi sog'lig'ining holatiga va kasalliklar tarqalishiga ta'sir qiluvchi tendensiyalar va qonuniyatlarni aniqlash;

davlat va idoraviy tibbiyot statistikasini yuritish, to'plash va tahlil qilinishida uslubiy yordam ko'rsatish;

o) tarmoqning joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini hisobga olgan holda kadrlarni o'qitish, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg'or usullarini tizimli asosda joriy etish sohasida;

Sanitariya-epidemiologiya xizmati mutaxassislarini o'qitish, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga rejalashtirish va tayyorlashda nazorat olib boradi;

tegishli ixtisoslikdagi ilmiy-tadqiqot va ta'lim tashkilotlari bilan birga Sanitariya-epidemiologiya xizmati mutaxassislarini tayyorlash uchun darsliklar, monografiyalar, o'quv tavsiyalari va qo'llanmalarini ishlab chiqadi;

Sanitariya-epidemiologiya xizmati tarkibiy boshqarma va bo'limlari hamda idoraviy mansub tashkilotlari rahbarlari lavozimlarini to'ldirish uchun rahbar kadrlar zaxirasini shakllantiradi va tayyorlaydi;

Sanitariya-epidemiologiya xizmati sanitariya-epidemiologiya va jamoat salomatligi sohasida qonun hujjatlariga muvofiq ravishda boshqa vazifalarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **3-bob. Sanitariya-epidemiologiya xizmati huquqlari va javobgarligi**

11. Sanitariya-epidemiologiya xizmati o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga egadir:

